# X. ISTE'MOL BOZORI

2022- yilning yanvar–sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 8978,2 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 112,9 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 168,9 foizga ko'payib, 1701,5 mlrd.so'mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 19,0 % ni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5,4 foizga ko'payib, 5848,5 mlrd. so'mga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 65,1 % ni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmining 1428,2 mlrd. so'mi uyushmagan savdo (dehqon va chorva bozorlari) hisobiga to'g'ri keldi va o'sish sur'ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 2,1 % ga oshdi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 15,9 % ga teng bo'ldi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi**
*(2022- yilning yanvar–sentabr holatiga)*




2022- yilning yanvar–sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi.

Davlat mulki 2,9 mlrd. so'mni, nodavlat mulki 8975,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

*Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Urganch shahri 38,2 %, Hazorasp tumani 9,9 % hisobiga to'g'ri keladi. Shuningdek: Tuproqqal'a tumani 1,8 %, Yangibozor tumani 2,1 %, Xiva tumani 2,4 %, va Xiva shahri 3,4 % eng past ko'rsatkichni qayd etdi.*

**Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi**
***(% hisobida)***




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasida o‘sish sur’ati 168,9 foizni tashkil qildi. O‘z navbatida, Urganch shahrida (2021- yilning shu davriga nisbatan 189,3 foizga), Shovot tumanida (173,6 foizga), Xonqa tumanida (152,3 foizga), Yangiariq tumanida (135,0 foizga) va Bog’ot tumanida (109,0 foizga) yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 148,6 mlrd. so‘mni va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 116,5 % ni tashkil qildi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,7 % ni tashkil etdi. Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Urganch shahri 48,0 %, Urganch tumani 15,7 % hisobiga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, Qo‘shko‘pir tumani 1,4 % va Tuproqqal’a tumani 1,8 % ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi

*(umumiy ovqatlanishni qo'shgan holda)*

| | Jami | | Aholi jon boshiga | |
|---|---|---|---|---|
| | *mlrd. so'm* | *2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan% da* | *ming so'm* | *2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan% da* |
| **Viloyat bo'yicha jami:** | **8 978,2** | **112,9** | **4 638,5** | **111,0** |
| Urganch shahar | 3 426,9 | 125,1 | 23 170,7 | 123,1 |
| Xiva shahar | 305,7 | 107,0 | 3 191,3 | 105,1 |
| tumanlar: | | | | |
| Bog'ot | 471,1 | 107,4 | 2 761,2 | 105,5 |
| Gurlan | 709,4 | 109,3 | 4 642,4 | 107,5 |
| Qo'shko'pir | 356,4 | 116,2 | 2 013,6 | 114,5 |
| Urganch | 848,3 | 102,8 | 4 102,2 | 100,8 |
| Hazorasp | 890,1 | 107,5 | 4 452,6 | 106,2 |
| Tuproqqal'a | 160,4 | 108,3 | 2 814,7 | 105,1 |
| Xonqa | 532,2 | 101,9 | 2 761,7 | 100,2 |
| Xiva | 218,0 | 107,8 | 1 449,3 | 106,2 |
| Shovot | 542,3 | 108,0 | 3 093,7 | 106,3 |
| Yangiariq | 325,5 | 101,4 | 2 723,5 | 100,0 |
| Yangibozor | 191,9 | 102,8 | 2 134,7 | 101,2 |

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda) aholi jon boshiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 111,0 % bo‘lib, 4 638,5 ming so‘mni tashkil etdi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 3 703,0 ming so‘m). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlarini Urganch shahri (23 170,7 ming so‘m), Gurlan tumanida 4 642,4 ming so‘m) va Hazorasp tumanida (4 452,6 ming so‘m), eng past ko‘rsatkichlar esa Xiva tumanida (899,5 ming so‘m), Qo‘shko‘pir tumanida (1 449,3 ming so‘m) qayd etdi.

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning (uyushmagan savdo qo‘shilgan holda) ulushi,%**




2022- yilning yanvar–sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3571,7 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 111,8 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 102,7 % ni tashkil qilib, ulardagi hajm 634,6 mlrd. so‘m bo‘ldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 113,9 % ni tashkil qilib 2937,1 mlrd. so‘m bo‘ldi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 82,2 % ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

| | *Jami mln. so'm* | *O'tgan yilning shu davriga nisbatan %da* | *Yirik korxona-lar mln. so'm* | *O'tgan yilning shu davriga nisbatan %da* | *Kichik korxonalar mln. so'm* | *O'tgan yilning shu davriga nisbatan %da* |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Viloyat bo'yicha jami:** | **3 571 666,9** | **111,8** | **634 587,7** | **102,7** | **2 937 079,2** | **113,9** |
| Urganch shahar | 1 716 392,1 | 105,6 | 156 013,1 | 87,5 | 1 560 379,0 | 107,9 |
| Xiva shahar | 137 407,8 | 146,1 | 465,6 | 62,3 | 136 942,2 | 146,8 |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Bog'ot | 93 104,7 | 139,2 | 56 399,3 | 137,1 | 36 705,4 | 142,6 |
| Gurlan | 188 196,8 | 135,0 | 99 702,2 | 124,8 | 88 494,7 | 148,7 |
| Qo'shko'pir | 28 998,8 | 182,7 | 11,5 | 114,1 | 28 987,3 | 182,7 |
| Urganch | 648 426,3 | 102,6 | 184 975,1 | 74,0 | 463 451,2 | 121,3 |
| Hazorasp | 68 417,7 | 139,3 | 13 027,5 | 28,9 m. | 55 390,1 | 113,8 |
| Tuproqqal'a | 39 373,4 | 130,1 | 24,7 | 83,2 | 39 348,6 | 130,2 |
| Xonqa | 203 348,0 | 121,9 | 88 540,1 | 139,5 | 114 807,9 | 111,1 |
| Xiva | 233 233,4 | 114,6 | 10,2 | 3,8 | 233 223,1 | 114,8 |
| Shovot | 59 510,9 | 113,4 | 27,0 | 50,3 | 59 483,9 | 113,4 |
| Yangiariq | 95 349,8 | 2,0 m. | 34 066,5 | 127,1 m. | 61 283,4 | 132,4 |
| Yangibozor | 59 907,2 | 112,5 | 1 324,8 | 102,1 | 58 582,4 | 112,8 |